
Cheklik yoshlar g'olib bo'lishdi

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi hamda agentlikning mahallalardagi vakillari hamkorligida turli sport musobaqalari tashkillanmoqda.

Bugun Toshloq tumani 1-sektor hududidagi "Istiqlol" MFYdagi suniy qoplamali futbol maydonida tumandagi "Istiqlol", "Chek" va "Nayman" mahalla yoshlari o'rtasida futbol musobaqasi o'tkazildi.

Musobaqa avvalida agentlik bosh mutaxassisi Sh.Niyozov hamda tuman Kengashi raisi D.Abdullayevlar mahalla yoshlarini o'tkazilayotgan musobaqa va tadbirlarda faol bo'lishga chorladilar.

Qizg'in kechgan o'yinlar yakuniga ko'ra chempionlik "Chek" MFY yoshlariga nasib etdi.

2022-02-02 13:59:08